

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL ABROR” ASARIDA INSONIY HISLATLARNING ULUG’LANISHI

Hayitmurodova Marjona.

*Samarqand Davlat Universiteti Pedagogika va tillarni o’qitish fakulteti
Filologiya va tillarni o’qitish: o’zbek tili yo’nalishi 2-kurs talabasi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Hayrat ul-abror” asaridagi insoniy hislatlarning ulug’lanishi maqolalar orqali ifoda etilgan. Asardagi har bitta maqolot zamirini insoniyatning gavhari bo’lmish: karam, saxovat, rostlik, hayo, iymon kabi mavzularga bag’ishlangan hikoyalar to’ldirib borgan. Bundan tashqari insoniyat olamidagi qabih, yomon hislatlar ham ko’rsatib o’tilgan. Ushbu hislatlarning jamiyatdagi o’rni qay darajada ekanligi mazkur mavzu ortida yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: maqolat, “Hayrat ul-abror”, “Xamsa”, hikoyat, bob, odob, saxovat, iymon, «Salotin zikrida», «Iymon sharhida».

Hayrat ul-abror (o’zbekcha: *Yaxshi kishilarning hayratlanishi*) — Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa"ning birinchi dostoni (1483) bo’lib, pand-nasihatchilik ruhida ta’limiy-axloqiy, falsafiy doston. 3988 baytdan iborat bo’lib, 64 bob, 20 maqolatdan tashkil topgan. Aruzning sare’ bahrida yozilgan. Asar an’anaviy muqaddima — hamd va na’t bilan boshlanadi. Navoiyning dunyo haqidagi qarashlari mana shu muqaddimada o’z aksini topgan. “Xamsa”ning sardaftari-zar daftari, ya’ni ilk oltin kitobdir. “Hayrat ul-abror” Eng pok va yetuk kishilarni hayratga soladigan bu dostonni sehrli ko’zgu deyish mumkin. Navoiy odamiy-chin insonga xos xususiyatlarni birma-bir tizadi: eng oliysi-saxovat: elga ehson-hadyadir. Yaxshi xulq na’munasi-hayodir. Bu fazilat barchaga farzdir, insoniy chin ziynat shudir. Hayoma’sumlik, poklik belgisidir. Yovuzlik va fusq-u fujur behayolikdan boshlanadi.

Ezgu xulqning uchinchisi - odob. Odob-odamgarchilik mezonidir. Odob - kishining kimligining tashqi belgisidir. Odob odamgarchilikning amaldagi ko’rinishidir.

Ana shu uch fazilat egasi – axloqan barkamol insondir, deya uqtiradi Alisher Navoiy. Chunki ana shu uchta fazilat egasi bo’lgan insonning shaxsiy umri boshqalarni baxtiyor etishga yo’naltirilganini biladi. Rost gapirmaydigan kishini Navoiy er va musulmon emas! – deya uqtiradi:

Ulki shoir ayladi yolg’on demak,
Bo’lmas ani er-u musulmon demak.

Yolg'on insonning aqliy va axloqiy fojiasidir.

Necha zarurat aro qolg'on chog'i

Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i.

deya talab qiladi Navoiy.

Chunki Muhammad alayhissalom tili va yozuvida yolg'onga erk bergan kishini ummatim emas, deganlar:

Sidq ila urg'onda salo ummati

Oytti: "Kazzobunu lo ummati".

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida jahl va fazl ahllari bir-biriga zid guruhga tiziladilar. Jahl ahli johillar g'oyat rang-barang: ilmdan bebahra sho'rlik, badmast kishi, zo'ravon amaldorlar, tamagirlar, talonchi askarlar, harbiy dasta boshliqlari, yolg'on fatvo beruvchi muftilar, yolg'onni rost deb hukm chiqaruvchi qozilar, manfaatparastlar, yolg'ondakam zohidlar, o'z manfaatlari uchun odamlarning o'limidan quvonuvchi go'rkov, g'assol va jallod:

Ulki kishi o'lmagidin shod erur,

Go'rkan-u g'osil-u jallod erur.

Bu guruhni hasadchilar, chaqimchilar, aybgo'y, gap tashuvchilar va boshqa yuz xil yomonlar to'ldiradilar.

Dostonda shularning har biri faoliyatda tasvirga olinadi va tahlil-u talqin etiladi. Jahl ahllari faoliyatining botilligi namoyish etilib, isbot ham qilinadi. Bularning barchasi elga jabr etuvchilardir.

Bu guruh- ikki dunyo saodatidan bilaturib o'zlarini mahrum qilgan Odam Ato farzandlaridir.

Ikkinchi guruh ahli fazl: madrasa tuprog'ini yalab o'qiyotgan talabalar; hazrati Ayyub kabi kechirimli avliyolar, No'shiravon kabi hayoli podshohlar, ma'naviy kamolotda o'g'li Abu Nasr Porsoni o'zidan ustun qo'ygan Xo'ja Muhammad Porso umriy faoliyatining so'ngida - o'lim oldida aql ko'zi ochilib, dunyodan qo'li ochiq ketgan Jahongir Iskandar, bir-biriga jon fido qilib, o'lim talashgan bunyodkor saxiy Shoh G'oziy-Husayn Boyqaro... Bularning har biridagi eng oliy axloqiy sifat o'zgalarga naf yetkazmoq, yaxshilik qilmoq, imdod etmoqdir.

Navoiy quyidagi baytda elga zarar yetkazuvchilarga nisbatan qarama-qarshi qutbdagi nafrason - foyda yetkazuvchilarni olqishlaydi:

Eyki nabi qavli bila shod sen,

Elga zarar xavfidin ozod sen.

demak, ahli jahl – elga zarar va jabr qiluvchilar; ahli fazl-elga naf yetkazuvchi, yaxshilik qiluvchi; madaniy va ma'naviy ehson qiluvchilar.

Dostonning 22-bobidan asosiy qism boshlanadi. U maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 ta bobni o'z ichiga oladi. Maqolalar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, uning yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladi, so'ngra shunga mos ibratli hikoya keltiradi. Asarning 25-bobidan imom, orif, zohidlar sayyidi Abu Is'hoq Ibrohim ibn Adham qissasi, beshinchi maqolatning 31-bobidan Sharq adabiyotida Hotamtoy deb tanilgan, saxiylikning eng oliy timsoli sanalgan Abu Safona (Adiy) Hotam ibn Abdulloh ibn Sa'd to'g'risidagi afsonalar o'rin olgan. Bu shaxs arablarning Toy qabilasi boshlig'i bo'lgan. O'ta saxovatli bo'lgani uchun ko'plab mutafakkirlar Hotam nomini hurmat bilan yodga olgan.

Hotami Toyiga bir ozodavash

Dediki: "Ey himmating ozodakash,

Toki saxo bo'ldi kafing varzishi,

Ko'rding ekinmu bir o'zingdek kishi?"

2-bob ustozlar ta'rifiga bag'ishlangan, 2-bob so'z va undagi ma'no haqida. So'ng Husayn Boyqaroga, ulug' pirlar: Bahouddin Naqshband, Xoja Ahrorga bag'ishlovlar keladi. Nihoyat, 22-bobdan maqolalar boshlanadi. 1-maqolat iymon, 2-maqolat islom, 3-maqolat shohlar haqida. Unda shoir bevosita shohga murojaat qiladi: "Ey, dabdabasi olamni tutgan sulton, senga haq hukmfarmolik berdi, qo'lingni baland qilib, el-xalqni, ne-ne buyuklarni qoshingda past etdi. Lekin shuni bilki, sen ham ularning ko'pidan o'jizroq bir bandasan... Haq senga vazifa topshirgan. Birinchi vazifa — bergan ne'matiga shukr qilmoq, ikkinchisi — xalqni xurram tutmoq, haqini haqlab bermoq, asramoq. U senga omonat berilgan. Agar sen elning bir siniq ignasini tortib olsang, oxiratda olmos xanjar bo'lib, bag'ringga qadaladi. Ingichka bir ip kabi zarar yetkazgan bo'lsang, u seni halok qiluvchi ilon deb bilaver... Beayb Parvardigor, lekin ayb qildingmi, tavba qil. Adolatsizlik qildingmi, adolat qil". Shu tariqa har bir maqolat bir mavzuga bag'ishlangan. Shoir dastlab mavzu bilan tanishtiradi. Unga munosabat bildiradi, ya'ni tasdiq yo inkor etadi, ayni mavzuga munosib biror ibratli hikoya keltiradi.

Dostondagi maqolalar sarlavhalarining o'zi asarda komil inson ulug'langanligidan dalolat beradi: 1-maqolat: «Iymon sharhida». 2-maqolat: «Islom bobida». 3-maqolat: «Salotin zikrida». 4-maqolat: «Riyokorlik-firibgariik haqida». 5-maqolat: «Xayr-u ehson vafida». 6-maqolat: «Adablilik odati haqida». 7-maqolat: «Qanoat haqida». 8-maqolat: «Vafo haqida». 9-maqolat: «Ishq o'ti ta'rifida». 10-

maqolat: «Rostlik haqida». 11-maqolat: «Ilm osmonining yulduzlaridek baland martabaliligi haqida». 12-maqolat: «Qalam va qalam ahllari haqida». 13-maqolat: «BuIutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida». 14- maqolat: «Osmonning tuzilishidan shikoyat». 15-maqolat: «Jaholat mayi». 16-maqolat: «Xunosasifat oliiftalar». 17-maqolat: «Bahor yigitligining sofiigi haqida». 18-maqolat: «Falak g'amxonasi haqida». 19-maqolat: «Xurosonning misli yo'q viloyati haqida». 20-maqolat: «Maqsadning o'talغانligi haqida». Ulug' shoir nuqtai nazarida iymon—komillikning tayanch belgisi. «Hayrat ul-abror» birinchi maqolatining iymonning badiiy sharhiga bag'ishlanishi ham shundan dalolatdir. «Xamsa»ning tayanch masalasi insoni komilning zamonlar imtihonidan o'tishga yaragulik ibratli timsolini yaratish ekan, ulug' shoirning mavzu ibtidosini iymondan boshlashi 312 tasodifiy emas, albatta. Iymon—islom dargohiga boshlovchi yo'l, unga olib kiruvchi eshikdir. Iymondan so'zlanganda, mantiqiy tafakkur rishtalari islomga borib taqalishi bois ham «Hayrat ul abror»ning ikkinchi maqolati islom ruknlari talqiniga bag'ishlangan. Mazkur bobda shu ulug' e'tiqodni tutib turgan besh rukn xususida birin-ketin badiiy mushohada yuritiladi. Tabiiyki o'sha qarashlarning ibtidosini «La ilaha ilIalIoh» shahodat kalimasi tashkil etadi, ya'ni islomning birinchi tayanch ustuni kalimai shahodatdir. Bunda Allohning bir-u borligi, azaliy-u abadiyligini e'tirof qilishdan tashqari, Muhammad Mustafoning Uning rasuli, elchisi ekanligi masalasi ham bor. Ana shu mo'tabar g'oya har bir iymonli mo'min-musulmonning tilidan tushmasligi vojib. Bu hali hammasi emas. o'sha muborak tuyg'u dildan ham mustahkam o'rin olmog'i shart. Sidqu sadoqati butun insonlarda til va dil muvozanatining tanosubi o'zak masala hisoblanadi. Salot—namoz, savmaa— ro'za, zakot, muqaddas haj tavofi singari ruknlar negizini ham insonning ruhiy-ma'naviy poklanishi bilan aloqador murakkab jarayonlar tashkil qiladi.

1-maqolat: «Iymon sharhida»Ushbu maqolot “Kimki bu jahonga inson bo'lib kelgan ekan, uning asosiy nishoni – belgisi imondir” jumlasini bilan boshlanadi. Bunda imonni olti qismdan iboratligi ta'kidlangan.

Birinchi qism -maqsud ,ya'ni Haqning mavjudligini bilmoqdir.

Ikkinchi qism – farishtalar .Ushbu qismda farishtalarni “Barcha falak ziyoratchilaridir,ular nafsning barcha iflosliklaridan pokdirlar.Barchasining javharlari pok-u ozod, tuprog'-u suv-u yel-u o'tdin holi.Barchalari yaratilganlaridan beri dam olishni bilmay xizmat qilishadi” deya e'tirof etilgan.

Alisher Navoiy Odob haqidagi oltinchi maqolotida ushbu hislatga oid o'zining qarashlarini berib o'tgan.Odobsiz kishilar izzatli bo'lmaydilar.Baland osmon bu xil kishilarni pasaytirib qo'yadi.Odobsizlikning biri kulgu bo'lib, kulgi odobning yo'qligidan belgi,xolos. Odobli insonlar kulgiga ko'p ham og'iz ochavermaydilar.Lekin hayo buluti qatrasiz ham bo'lmaydi. Qaqaha xazil bilan yor bo'lsa ikkovining qiyofasi qurbaqaning kuyi bilan sakrashini eslatadi.Yuziga soqol bog'lab elni kuldirishga intilgan odam o'z soqoliga o'zi kulgi keltiradi.

Odobda uning muayyan shartlariga amal qilmoq muhimdir. Har kishiga muomala qilganda, uning senga nisbatan yoshi hisobga olinishi kerak. Boshqalarning obro'yi senga nisbatan pastroq bo'lsa ham baland bo'lsa ham ularga yaxshi muomala qilish kerak. Ular boshqacha ish tutsalar ham sen hisob bilan ish ko'rishing darkor. Yana biri farzandga yaxshi ot qo'ymoqdir. Shunday ism qo'ymoq darkorki, odamlar ataganlarida uyalib qolmasin. Ismlarda ham farq ko'p uchraydi. Biri Husayn bo'lsa, yana biri Yaziddir. Yana biri bolaga ta'lim berish va muallim topishdir. Yana biri Bolani tarbiyalashda shafqat ko'rsatish. Va yana shu kabi shartlarga amal qilmoq keragligini ushbu maqolatda berib o'tgan.

So'ngra **Silayi rahm – qarindoshlarga sadoqat**, ularga mehribonlik, doimiy aloqada bo'lishni, o'sha doira odamlariga mehr-shafqatni o'zing uchun farz bil.

Alisher Navoiy odobning eng muhim shartlaridan biri **ota bilan ona ehtiromini bajo qilmoqdir** deya ta'kidlaydilar. Boshingni ota qoshig'a fido aylab, jismingni ona boshig'a sadqa qilgil. Ikki jahoningga rohat istasang, ushbu ikki zotning rizoligini olgil. Tun-u kuningni yoritmoq uchun birini oy birini quyosh deb bilgil. So'zlaridan salgina ham chetga chiqmay, vasiyatlaridan bir qadam bo'lsin tashqari qadam qo'ymagil deb purma'no so'zlari orqali nasihat qiladilar.

Navoiy o'z davri uchun zarur bo'lgan biror ijtimoiy-siyosiy yoki axloqiy muammoni qo'yadi, uni o'z davridagi hayotdan, ijtimoiy tabaqalarning ahvolidan kelib chiqib chuqur va atroflicha tahlil qiladi va unga o'z gumanistik munosabatini bildiradi. Masalan, saxiylik haqida gap borganda (beshinchi maqolat) shoir saxiylikni va saxiy kishilarni madh etadi, ularni hech qachon xasislikka yuz o'girmaslikka chaqiradi. Shu bilan birga nom chiqarish uchun boylikni sochib yuborish qattiq qoralanadi: Sochmoq ovuch birla guhar ot uchun, Naqd etak birla mubohot uchun, Aql hisobidin erur bas yiroq. Navoiy hukmron sinf kishilarining hushomadgo'yiligini, ikki-yuzlamachiligini, o'z manfaati yo'lida har qanday pastkashlikdan qaytmasligini obrazli qilib ifodalagan: Yoyar anga supraki, ul och emas, Berur anga to'nki, yalang'och emas. Ot anga tortarki, yuz ilgisi bor, Sim anga berurki, yuz ilg'isi bor. Yuksak xulq-axloq uchun kurashgan shoir bu masalalarni xalqchillik nuqtai nazaridan yoritadi, mehnatkash xalq qarashlarini ifodalaydi, xalq va mamlakat uchun jon fido qilgan kishilarni o'z ideali deb biladi, ularni xonalarni yoritgan shamga, olamni nurga to'ldirgan quyoshga o'xshatadi. Kishilardagi badbinlik, yalqovlik, jaholat, maishatbozlik, mayparastlik, nosamimiylilik, chaqimchilik kabi illatlarni fosh etishga ham dostonning yuzlab satrlari bag'ishlangan. Bu masalalar talqinida Navoiy tili yorqin, ifodali bo'lib, xalq jonli tiliga g'oyat yaqin. Masalan, u yoshlarga murojaat etib: Boshni fido ayla ato qoshig'a, Jismni qil sadqa ano boshig'a...

Tun-kunungga aylagali nur fosh,

Birini oy angla, birisin quyosh,

- deb yozar ekan, bu haqiqiy xalq tili, sof adabiy tilimizning iamunasidir. Navoiy «Xamsa» dostonlarini o‘z ona tilida yozish bilan o‘zbek adabiy tilini to‘la shakllantirdi, eng rivojlangan tillar darajasiga olib chiqdi, uning boyligi va rang-barangligini namoyish qildi.

Navoiy «Hayratul-abror»da shoh va uning amaldorlarini, riyokor shayxlarni, ochko‘z feodallarni, poraxo‘r mansabdorlarni ayamay tanqid qilar ekan, ularning satirik obrazlarini chizib, she’riyatni, dostonchilikni real turmush ehtiyojlariga yaqinlashtirdi. Shu bilan birga adolatni, insonparvarlikni, mehnatsevarlikni, saxovatni, ishq va muhabbatni, halollikni, rostgo‘ylikni, ma’rifatparvarlik na shunga o‘xshash boshqa insoniy fazilatlarni ulug‘lovchi satrlari bilan esa ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tafakkur darajasi, she’riyatning jangovarligini yanada yuqori ko‘tardi. «Hayratul-abror» programma xarakterdagi asar bo‘lib, undagi g‘oyalar keyingi dostonlarda noyob syujetlar, xilma-xil qahramonlarning yorqin obrazlari, ajoyib hikoyalar va original badiiy san’atlar orqali yanada rivojlantirildi hamda chuqurlashtirildi.

“Hayratul abror” dostonidagi hikoyatlar falsafiy-axloqiy qarashlarni ifoda etsa-da, mohiyatan insonni komillik, ilm-ma’rifat, iymon, qanoat, adolat kabi fazilatlar bilan kamolotga erishishga qayta-qayta da’vat qiladi. Asarning bosh g‘oyasi komil inson vasfiga bag‘ishlangani bois, Alisher Navoiy Allohning insonni yaratishdan maqsadi haqida fikr yuritar ekan, har bir davrning o‘z bahori va kuzi bo‘lishini aytib, ularni hikoyatlar, tarixiy shaxslar vositasi orqali yoritib beradi. Hazrat sermahsul ijodkor bo‘lib, yaratgan asarlari necha asrlar o‘tsa ham o‘z qiymati va o‘quvchilarini yo‘qotmagani ham pokiza insoniy qadriyatlarining go‘zal nazmiy usulda, chuqur falsafiy mushohadalar bilan ifoda etilganidandir.

Ushbu maqoladan shu ayon bo‘ladiki, Alisher Navoiy mazkur asari orqali butun jamiyatni insoniyatning gultoji bo‘lmish ezgu fazilatlar egasi bo‘lishga yomon fazilatlardan esa uzoq bo‘lishga undayapti. Ushbu asarni “Hikmoatnoma” deyish ham mumkin. Maqolada asar maqolalarida ifodalangan ezgu va qabih hislatlarning kulminatsion nuqtalari haqida qo‘shimcha fikr-mulohazalar berib o‘tilgan. Hikoyatlarda falsafiy-axloqiy qarashlarni ifoda etilishi, mohiyatan insonni komillik, ilm-ma’rifat, iymon, qanoat, adolat kabi fazilatlar bilan kamolotga erishishga qayta-qayta da’vat qilinishini va ijodkorning yaxshi va yomon illatlarga bo‘lgan qarashlari tahlillar orqali yorqin ochib berilgan.

[1] <https://qomus.info/encyclopedia/cat-x/xamsachilik-uz/>

[2] https://uz.wikipedia.org/wiki/Hayrat_ul-abror

[3] *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi*

[4] Alisher Navoiyning “Xamsa” asari.